

CHINGIZ AYTMATOV IJODINI O'RGANISHDA AUDIO VA VIDEO FAYLLARDAN FOYDALANISH

Habibullayeva Xolida Xamidullo qizi

NamDPI o'zbek tili va adabiyoti

mutaxassisligi 1-kurs magistranti

E-mail: habibullayevaxolida882@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolaning maqsadi ta'limgagi samarasiz usullar o'rniغا yangi avlod darsliklari hamda texnologiyalaridan foydalanib, ôquvchilarni adabiyotga qiziqishini orttirish hisoblanadi. Ta'limgagi zamonaviy texnologiyalar, xususan, audikitob, videoroliklardan foydalanish o'qituvchini zamon talablariga uygunlashtiradi va dars samaradirligi yuqori darajaga ko'taradi. Adabiyot darsida, jumladan, Chingiz Aytmatov ijodi misolida audifayllardan foydalanish usuli tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Multimedia, audio, audikitoblar, videorolik, zamonaviy metod.

ABSTRACT

The purpose of the article is to increase students' interest in literature by using new generation textbooks and technologies instead of ineffective methods in education. Modern technologies in education. in particular, the use of audio books and videos adapts the teacher to the requirements of the time and increases the effectiveness of the lesson to a high level. In the literature lesson, the method of using audiofiles was analyzed, for example, on the example of Chingiz Aytmatov's work.

Keywords: Multimedia, audio, audio books, video, modern method.

АННОТАЦИЯ

Цель статьи - повысить интерес учащихся к литературе за счет использования учебников и технологий нового поколения вместо неэффективных методов обучения. Использование современных технологий в образовании, в частности аудиокниг, видео, адаптирует учителя к требованиям времени и повышает эффективность урока. На уроке литературы разбирался способ использования аудиофайлов, например, на примере творчества Чингиза Айтматова.

Bugungi texnika asrida o‘quvchi yoshlarninig zamon bilan hamnafas yashayotganini hisobga olgan holda oddiy an’anaviy, ma’ruza darslari samaradorligi bir muncha pasaydi hamda o‘quvchilarda darsga qiziqishni susaytirdi .Bugungi kun o‘qituvchisi o‘quvchilarda ijodkorlik, mustaqil ishlash, kitob mutolaa qilishni o‘rgatish uchun adabiyot darslarida AKT vositalaridan, xususan, audio, video, multimediyadan foydalana olishi kerak.

“**Audio** (lotincha-audio-“eshitmoq”) ovoz texnalogiyasiga taalluqli bo‘lib, tashuvchilarga yozilgan ovoz, tovush bundan tashqari ovoz bilan ishlash tizimi va texnalogiyalari tushuniladi. Adabiyot darslarida nafaqat bir matn, balki butun bir audikitoblar bilan ishlash imkoniyatiga ham ega bo‘lish mumkin. Audiokitoblar ham qiziqarli, ham tarbiyaviy, ta’lim beruvchi hususiyatga ega bo‘lishi kerak. Audiokitoblarga nogironlar, ko‘zi ojizlar va zaif ko‘rvuchilar uchun audio adabiyotlar, yosh bolalar uchun yaxshi o‘qiladigan ertaklar, xorijiy tillar bo‘yicha audio kurslar, o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun audio qo‘llanmalar, audio yo‘lboshlovchilarni kiritish mumkin. Biroq turli radio dasturlarning yozuvlari audiokitoblar hisoblanmaydi, balki bu spektakllar, ovozli chiqishlardir.”[1.]

Adabiyot darslarida audio va video materiallaridan foydalanish bu darsni yanada qiziqarli o‘tishiga, bundan tashqari, darsning samarali bo‘lishiga, o‘quvchilarning darsni yaxshiroq tushunishiga, shoir va ijodkorlarning hayoti va ijodi, ularning asarlari haqida ko‘proq ma’lumot olishiga va darsning mazmunliroq o‘tishiga imkon beradi. Audio va video materiallaridan darsda foydalanishdan asosiy maqsad bu o‘quvchilarning ko‘rish va eshitishi orqali shu mavzuning yanada yaxshi o‘zlashtirishlari, darsga qiziqishini oshirishda qo‘l keladi.

Xorijiy tillarni o‘rganishda keng qo‘llangan audio va video darsliklar qo‘llash metodikasini adabiyotimizga ham olib kirish adabiyot o‘rganishning ommalashuviga hamda o‘quvchilarning badiiy adabiyotgan qiziqishlarini oshirishga katta yordam beradi.

Adabiyot daslarida audio, video fayllardan foydalanish dars samaradorligini ikki barobarga oshiradi.Bunday materiallar bilan o‘qituvchi o‘quvchilar bilan faqat dars jarayonida emas,balki uyda ham shug‘ullanish imkoniga ega bo‘ladi. Bugungi kunda audiokitoblani har qanday ijodkor asarlarida uchratish mumkin. Shu jumladan Chingiz Aytmatov asarlari ham bundan mustasno emas.

“Ijodkor sifatida o‘zbek adabiyotida o‘z yo‘li hamda kitobxonlariga ega qirg‘iz yozuvchisi, Chingiz Aytmatov boy ijodiy merosga ega. 1958 yilda yozilib, jahon xalqlarining 40 dan ortiq tillariga tarjima qilingan asar «Jamila» qissasi bo‘ldi. «Jamila» qissasini Lui Aragon «Muhabbat haqida yozilgan jahondagi eng ajoyib qissa» deb atagan. Chingiz Aytmatov davlat va jamoat arbobi sifatida ulkan ishlarni amalga oshirdi. U Q. Muhammadjonov bilan hamkorlikda «Fudziyamadagi uchrashuv» nomli

drama yozgan. Chingiz Aytmatov Qirg‘iziston xalq yozuvchisi (1968), 1995 yildan Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati assambleyasi Prezidenti lavozimida ishlagan. U Mustaqil O‘zbekistonning «Do‘slik» (1995), «Buyuk xizmatlari uchun» (1998) ordenlari bilan mukofotlangan. Qirg‘iziston Respublikasida Chingiz Aytmatov nomidagi Xalqaro «Oltin medal» mukofoti ta’sis etilgan (1999). Chingiz Aytmatovning asarlari 80 dan ortiq xorijiy tillarga tarjima qilingan. Chingiz Aytmatov «Momo yer», «Qizil durrachali sarvqomatim» kabi asarlarini avval qirg‘iz tilida yozib, so‘ng o‘zi rus tiliga tarjima qilingan. Ba’zi asarlari esa, avval rus tilida yozilib (masalan, «Oq kema», «Alvido, Gulsari») so‘ng qirg‘iz tiliga o‘girildi. Asarlari; «Yuzma-yuz», «Sarvqomat dilbarim», «Somon yo‘li» (1963), «Momo yer», «Alvido Gulsari» (1966), «Oq kema», «Sohil yoqalab chopayotgan olapar» (1977), «Hoshim», «Gazetachi Dzyuydo», «Oq yomg‘ir», «Sepoyachi», «Qiyomat» (1986, qahramonlari: Ober-Kandalov, Iso, Avdiy, Pontiy Pilat, Iuda, Grishan, Bozorboy, Ko‘chqorboev, Guram Juxadze, Bo‘ston, Sandro va boshq.), «Birinchi muallim» (1962), «Asrga tatigulik kun», «Kassandra tamg‘asi» (1990), «Erta qaytgan turnalar» va boshq. «Oq kema» qissasi haqida Bu qissa 1970 iilda yozitgan bo‘lib, 7 qismdan iborat. Ijodkorning boy ijodiy merosini o‘rganishga talab har doim kuchli ekanligini hisobga olgan holda, o‘qitishning zamonaviy metodlaridan bu asarlar ham chetda qolmadi. Chingiz Aytmatovning juda ko‘plab asarlarining audiovarianti borligi bugungi kun o‘quvchisiga ijodkor asarlarini yanada kengroq ko‘lamda o‘rgana olish imkoniyatini yaratmoqda. Chingiz Aytmatovning “Bo‘tako‘z”, “Asrga tatigulik kun”, “Oq kema” asarlarining audio variantlarini elektron kutubxona va istalgan saytdan topish mumkin. Audio fayldan tashqari “Oq kema” asari asosida olinga badiiy film ham asarning naqadar yuksak saviyaga ega ekanini ko‘rsatadi.”[2.]

Hususan Chingiz Aytmatov 7-sinf darsiligida “Oq kema” “asaridan parcha keltirilgan bo‘lib, bu mavzuni o‘zlashtirishda shu nomdagi audiofayldan foydalanish eng to‘g‘ri yechim hisoblanadi. Audio fayldan tashqari “Oq kema” asari asosida suratga olingan badiiy filmdan parchani o‘quvchilarga tomosha qildirish ham bu asarni o‘quvchi ongida muhrlash kontektni ham ko‘taradi. Quyida asardan o‘quvchi ongida har doim eslab qolish darajasi yuqori bo‘lgan parcha keltirib o‘tildi.

“Uning ikki ertagi bo‘lardi. Biri o‘ziniki bo‘lib, uni hech kim bilmasdi. Ikkinchisini esa bobosi so‘zlab bergandi. Keyin birontasi ham qolmadi. Gap shu xususda. O‘sha yili u yetti yoshga to‘lib,- sakkizga qadam qo‘ygandi. Avval portfel sotib olindi. Qop-qora dermantin portfeli ochib-yopganda shiqillaydigan qulfi yaltirab turardi. Yonida mayda-chuyda soladigan kissasi ham bor. Qisqasi, g‘aroyib, ayni paytda oddiy maktab portfeli edi. Hamma narsa, ehtimol, shundan boshlandi. Bobosi uni ko‘chma do‘kondan sotib oldi. Ko‘chma do‘kon tog‘dagi chorvadorlarga mol sotib, aylanib yurganda, ularga ham, San-Toshdag‘i o‘rmonchilik qorovulkxonasiha ham

birrov burilgandi. U bu yerdan, dara va nishab yo'llar bo'ylab tog'dagi qatag'on o'rmonga ko'tarildi, Qorovulkxonada bor-yo'g'i uch oila yashaydi. Lekin shunday bo'lsa-da, vaqtı-vaqtı bilan ko'chma do'kon o'rmonchilarni ham yo'qlab turardi. Uch hovlida yolg'iz bitta bola bo'lib, u har safar ko'chma do'konni birinchi bo'lib ko'rari edi.

- Kelyapti! - deb qichqirdi u eshik va derazaga qarab chopib.- Mashina-magazin kelyapti! Issiqko'l bo'ylaridan bu tarafga cho'zilgan aylanma yo'l kela-kelguncha dara, daryo sohili bo'ylab, toshloq va o'nqir-cho'nqirlardan o'tib kelardi, Bu yo'llardan yurish hazilakam ish emas. Qorovul toqqa yetguncha yo'l pastdan yuqoriga torayib, qiyalab borardi-da, keyin tikka taqir nishablik bo'ylab o'rmonchilar hovlisiga tushadi. Qorovul tog' shundoq yonginalarida - yozda bola durbindan ko'lni tomosha qilgani deyarli har kuni o'sha yoqqa chopardi. U yerdan esa yo'lda kelayotgan piyoda-yu, otliq, albatta, mashina ham, hamma narsa kaftdagidek ko'rini turardi. O'sha safar - issiq yoz kunlaridan birida bola o'z ko'lobida cho'milib turgan edi, shunda qiya yo'lni changitib kelayotgan mashinani ko'rib qoldi. Ko'lob daryoning chetroq sayoz joyida, qumloq erda bo'lib, bobosi tosh qalab to'sib bergen edi. Agar shu to'siq bo'lмаганда, kim biladi, balki bola ham allaqachonlar tirik qolmagan bo'larmidi? Buvisining aytishicha, daryo allaqachon uning suyaklarigacha yuvib, to'g'ri Issiq ko'lga eltil tashlarmidi va u yerda baliqlar hamda suvdagi har xil baloi battarlarga yem bo'larmidi? Hech kim uni qidirib jon koyitmas, dardida kuyib, ado bo'lmas edi, rost-da, suvda pishirib qo'yibdimi? Sirasini aytganda, u kimga ham kerak. Hali hozircha bu falokat bo'lganicha yo'q. Sodir bo'lsa, kim biladi, buvisi balki chindan ham uni qutqargani urinib ko'rmas, kampir tug'ishgan buvisi bo'lganda boshqa gap edi, axir, uning o'zi, o'gaysan, deb yuradi-ku. O'gay esa qancha yedirib, qancha ichirma, baribir o'gayligiga boradi. O'gay... Agar u o'gay bo'lishni istamasa-chi? Xo'sh, nega endi u o'gay bo'lishi kerak? Balki u emas, buvisining o'zi o'gaydir? Lekin bu to'g'rida ham, bobosi yasagan to'siq haqida ham keyinroq gap bo'ladi. Shunday qilib, u o'shanda ko'chma do'konni uzoqdan ko'rib qoldi, mashina ketidan to'zon ko'tarib, tog'dan tushib kelayotgan edi. Shunda u quvonib ketdi, o'ziga portfel olinishini bilgandek quvonib ketdi. Shu zahotiyiq suvdan sakrab chiqdi, chillakdek oyoqlarini ishtonining pochalariga tiqdiyu, suvning sovuqligidan ko'karib ketgan badanining ho'li bilan ko'chma do'konning kelayotganini birinchi bo'lib yetkazish uchun so'qmoqdan uylar tomon chopib ketdi. Bola butalar ustidan hatlab, sakrab o'tish qiyin bo'lgan xarsang toshlarni yonlab o'tib, na to'siq o'tlar, na xarsang toshlar oldida, bular shunchaki narsalar emasligini bilsada, bir daqiqa ham to'xtamay chopib borardi". [3.95-96] "Ushbu matnni biz odatda, har qanday asar matni o'qituvchi tomonidan o'qib berilayotgan paytda o'quvchilar ham u bilan birga o'z darsliklaridan asarni ichdan o'qib borishlari tavsiya etiladi. Bu usul, avvalo, o'quvchilarni eshitish orqali ifodali o'qish ko'nikmasini egallashga

yo‘naltiradi, ko‘zlar bilan o‘qish asnosida esa o‘qituvchidan ortta qolmaslikka intilib, tez o‘qish ko‘nikmasini ham egallab boradilar. Asar to‘liq o‘qituvchi tomonidan o‘qib bo‘lingandan so‘ng, ikkinchi darsda uning tahliliga kirishiladi. Bu metod biz shu paytga qadar foydalangan eng zerikarli metodlardan biri, chunki o‘qituvchi matnni o‘qish bilan band ekan, 80% o‘quvchining diqqati darsda bo‘lmaydi. Bizning maqsadimiz esa, har bir o‘quvchini darsga jalb qilishdir. Buni inobatga olgan holda bu darsda asarning (Oq kema) audio yoki video shaklini o‘quvchilarga qo‘yib berish orqali darsga qiziqtirish juda yuqori bo‘lishi ta’minlanadi.”[4.185]

Bunday asarlar matnining audio variantini tinglab o‘quvchiga o‘rgatish orqali o‘qituchi o‘quvchilar bilan faqatgina dars vaqt mobaynida emas, balki mактабдан tashqari vaqlarda ham mashg‘ulot olib bora olish imkoniyatini beradi. Aksariyat odamlar yildan yilga an’anaviy mutolaa o‘rniga audiokitoblarni afzal ko‘rishmoqda. Mutolaa uchun yetarlicha vaqt ajrata olmaydigan, ko‘zi bilan bog‘liq muammosi bor hamda uzoq davom etgan ish kunidan keyin shunchaki hordiq chiqarmoqchi bo‘lgan insonlar uchun audiokitoblar ayni muddaodir.

Audiokitoblar xotirani mustahkamlash va tovushni yaxshiroq idrok etishga yordam beradi. Shuningdek, ular so‘z boyligini oshirish va grammatikani yaxshilashga xizmat qiladi.

Audiokitoblarning afzalliklaridan yana biri ularni istalgan joyda va istalgan vaqtida tinglashingiz mumkin – badantarbiya qilyotganda, sayr vaqtida, ovqat tayyorlash jarayonida yoki uy ishlarini bajarayotganda.

Audiokitob tinglayotganingizda asar syujeti sizni jalb qiladi va siz boshqa dunyoga kirib qolganday bo‘lasiz. Bu maroqli bo‘lish bilan birga fantaziya va tasavvurni kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, audiokitoblarning an’anaviy mutolaaga qaraganda, afzalliklari talaygina. Vaqt ni tejaydi, tilni yaxshilaydi va tasavvurni kengaytiradi. Shunday ekan, barcha qiziquvchilarni audiokitoblarni tinglashga chorlab qolamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. srcyrl.kidsoundbook.com <https://srcyrl.kidsoundbook.com> Audio kitobning afzalliklari – Yangiliklar
2. Tafakkur (<https://tafakkur.net/chingiz-aytmatov.haqida>) Chingiz Aytmatov Hayoti va Ijodi.
3. ADABIYOT Umumiy o‘rtalim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 4-nashri. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan «SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA TOSHKENT (2017).
4. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Qunduzxon Husanboyeva, Roza Niyozmetova. “Adabiyot o‘qitish metodikasi.” O‘quv qo‘llanma 2-nashr. Toshkent “INNOVATSIYA-ZIYO” 2020